

5-Mavzu. Qishloq xo'jaligida resurs salohiyatidan samarali foydalanishni tashkil etish.

Reja:

- 5.1.** Yer fondining shakllanishi va undan foydalanishni tashkil etish.
- 5.2.** Yerning, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi omili sifatidagi xususiyati. Yer rentasi va yer narxi.
- 5.3.** Suv manbalaridan samarali foydalanish va suv ishlatishni rivojlantirish. Suvdan foydalanishda havza tamoyilining afzalliklari va ahamiyati.
- 5.4.** Sug'orish tizimi va suvni tejovchi yangi sug'orish texnologiyalaridan foydalanish.
- 5.5.** Sug'orish tizimlarida va xo'jaliklarda suvdan rejali foydalanish. Xo'jaliklarda suvdan foydalanish samaradorligi.

Tayanch iboralar: kadastr, davlat yer kadastr, renta daromadlari, yer rentasi, yer solig'i, yer transformasiyasi, yer uchastkasi, yerning bahosi

Foydalangan adabiyotlar.

Asosiy adabiyotlar

1. Samatov G.A., Yodgorov J.Yo., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Darslik. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». - Toshkent: ToshDAU taxririyyat- nashriyyot bo'limi, 2005. - 508 b.
2. **Samatov G.A., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Ma'ruza matni. - Toshkent: ToshDAU taxririyyat-nashriyyot bo'limi, 2008. - 120 b.**
3. Samatov G.A., Rustamova I.B., Gaybullayev O.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish fanidan amaliyot darslari uchun uslubiy ko'llanma. - Toshkent: ToshDAU taxririyyat- nashriyyot bo'limi, 2008. - 120 b.
4. Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. Darslik. - Samarqand: Samarqand qishloq xo'jalik instituti, 2004y.
5. Xakimov.R, Yusupov.E.D. "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti". O'quv qo'llanma. Toshkent- 2004 y.

Xorijiy adabiyotlar:

1. Agrarmanagement Jens Pape, Clemens Morath, Reiner doluschitz ISBN-10:3-8252-3587-4, EAN:978382523587
2. Barrick, R. K. Harmon, H. L. Animal Production and Management Ed: Gregg Division McGraw-Hill (1988-02-01) ISBN 10: 007003852X / ISBN 13: 9780070038523
3. Connor, D. J.; Loomis, R.S.; Cassman, K.G. 2011. Grop Ecology. Productiviti and Management in Agricultural Systems. University Press ISBN: 9780521744034.
4. Modernes Agrarmanagement: Betriebswirtschaftliche Analyse-und Planungsvefahren MuBhoff, Hirschauer (2013) 3. Auflage, Vahlen-Verlag, Munchen.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22 oktyabr 2012 yildagi «O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4478- sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 sentyabrda Namangan viloyatiga 29-30 sentyabr kunlari Farg'ona viloyatiga tashriflari chog'ida bergan topshiriqlari bo'yicha chora - tadbirlar.
3. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. - T.: «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi», 2004. - 346 bet.
4. Komiljonov B.I. Innovasiyaviy menejment uslublarini takomillashtirish. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2007.
5. Samatov G'.A, Yodgorov J.Yo, Rustamova I.B. Qishloqda zamonaviy bozor infratuzilmasini kompleks rivojlantirish va servis xizmatini tashkil etishning asoslari (fermerlar tayyorlash va

qayta tayyorlash bo'yicha biznes maktablar tinglovchilari uchun qo'llanma).-T.:ToshDAU taxririya 2004y.

6.Umurzoqov U.P. va boshq. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-moliya", 2007. - 276 b.

7.Farmonov T.H. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. - T.: «Yangi asr avlodi», 2004. - 144 s.

8.Shakirov F.K., Korolev Yu.B., Pastuxov A.K. i dr. Organizatsiya selskoxozyaystvennogo proizvodstva i menedjment: uchebnik dlya vuzov. - M.: Kolos OOO, 2008. - 607 s.

5.1. Yer fondining shakllanishi va undan foydalanishni tashkil etish.

Qishloq xo'jaligi mulki, tarkibi va ahamiyati haqida tushuncha. Har qanday qishloq xo'jaligi korxonasi ishlab chiqarish uchun o'zining ma'lum bir yer, mehnat, moddiy, texnik manbalari-resurslariga ega bo'ladi. Ularning barchasi birgalikda resurs imkoniyatini tashkil qiladi. Boshqacha aytganda, resurs imkoniyati bu agrar tarmoq va xo'jaliklarning texnologik kirim va chiqim balanslari muvozanati darajasiga bog'liq bo'lmagan boyliklar yig'indisidir.

Biroq, aynan texnologik resurslar kirim va chiqim balansiga ega bo'lmagani uchun ulardan samarali foydalanish juda murakkab, negaki har bir birlik qishloq xo'jaligi maydoni uchun ma'lum bir ishlovchilar soni, asosiy ishlab chiqarish vositalari, moddiy-pul mablag'lari va h.z.lar bo'lishi zarur. Bunday muammolar esa resurs imkoniyatlaridan foydalanish jarayonida hal etiladi.

Qishloq xo'jaligi tuzilmalarining eng muhim, asosiy resursi yer hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yer ishlab chiqarishning asosiy vositasidir. U ishlab chiqarish faoliyatining asosi va insoniyat jamiyati mavjudligining eng muhim shartidir.

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan boshqa ishlab chiqarish vositalariga qiyoslaganda yer, xususan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida foydalaniladigan maydonlar quyidagilar majmuasidan iborat o'ziga xos xususiyatlarga ega;

- mashinalar, binolar, inshootlar va hokozolar inson tomonidan yaratilgan bo'lsa, yer inson mehnatining mahsuli emas;

- u makon jihatidan chegaralangan, uni ixtiyoriy ravishda ko'paytirish yoki kamaytirish mumkin emas. Ammo, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun yaroqli bo'lgan yer zahiralardan batamom foydalanib bo'linmagan. Ilmiy hisob-kitoblarga ko'ra hozirda butun jahon dehqonchiligida ishlab chiqarish uchun yaroqli yerning taxminan 1/10 qismigina inson manfaatlari uchun foydalanilmoqda;

- yerni ishlab chiqarish vositalarining boshqa birortasi bilan almashtirish mumkin emas. Katta miqdordagi boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqli ravishda undan foydalanish joyning, makonning barqarorligi bilan bog'liq;

- agar yerdan to'g'ri foydalanilsa, u ishlab chiqarishning boshqa vositalari kabi eskirib qolmaydi, aksincha uning unumdorligi oshib boraveradi. Unumdorlik yerning o'ziga xos eng muhim xususiyatidir. Ayni paytda ayrim yer uchastkalari sifati, tabiiy ozuqa moddalarining miqdoriga ko'ra bir xil emas.

Qishloq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan yerlar deb, qishloq xo'jaligi ehtiyojlariga ajratilgan, shuningdek shu maqsadlarda hududiy rejalashtirishga muvofiq belgilangan yer maydonlariga aytiladi.

Mulklar ikki guruhga: qishloq xo'jaligi mulklari va qolgan barcha mulklarga bo'linadi.

Qishloq xo'jaligi mulklariga: haydaladigan yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar, bo'z yerlar, pichanzorlar va yaylov-o'tloqlar kiradi. Ular o'zaro o'simliklarning tabiiy va inson tomonidan o'zlashtirilgan turlari, yer va o'simliklarga inson faoliyati bilan ta'sir ko'rsatish, ya'ni qo'llaniladigan agrotexnik tadbirlarning majmuasi bo'yicha farqlanadilar.

O'zbekistonning yer fondi 44,74 mln. gektarni tashkil etadi. Uning 62,7 foizi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida foydalanilmoqda. Bu salkam 32 mln. gektarni tashkil etadi. O'rmon xo'jaligi korxonalariga yer fondining 12,4 foizi (5 mln.gektar), cho'l - tog' mintaqasida joylashgan davlat

zaxirasidagi unumdorligi past yerlarga 10,4 foizi (4,7 mln.gektar), sanoat va transport yerlariga 4,1 foizi (1,8 mln.gektar) va aholi manzilgohlari egallagan yerlarga 0,5 foizi (0,2 mln.gektar) to'g'ri keladi. Boshqa maqsadlarda yarim million gektar yerdan foydalanilmoqda.

Qishloq xo'jalik yerlari ichida ancha katta salmoq (83,5 foizini o'tloqlar va ayniqsa yaylovlar egallaydi. Undan keyingi qatorlarda haydaladigan yerlar (14,9 foiz), ko'p yillik ekinlar - bog'lar va

tokzorlar (1,4 foiz) joylashgan. O'zbekiston bo'z yerlarining salmog'i ancha pastligi (0,2 foiz) bilan ajralib turadi. Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan va boshqa turdagi yerlarning ulushi Respublika jami yer fondining 37,3 foiziga teng.

Hududi cho'l va dasht mintaqalarida joylashgan viloyatlarda yaylovlarning salmog'i ancha yuqori. Bu ko'rsatgich Navoiy viloyatida jami qishloq xo'jalik yerlarining 98,7 foiz, Buxoro viloyatida - 92,5 foiz, Surxondaryo viloyatida 73,8 foiz, Qashadaryo viloyatida - 68,8 foiz, Samarqand viloyatida 61,6 foiz, Xorazm viloyatida 59,8 foiz, Toshkent viloyatida 54,8 foizni Qoraqalpog'iston Respublikasida esa 91,6 foizni tashkil etadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarining deyarli 97,0 foizini yetishtirib beradigan haydaladigan yerlar ham Respublika hududi bo'yicha notekis taqsimlangan.

Haydaladigan yerlarning eng katta maydonlari Qashqadaryo (16,9 foiz), Jizzax (11,1 foiz), Samarqand (10,9 foiz) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (10,5 foiz) joylashgan. Shu vaqtning o'zida nisbatan kichik maydonlar Namangan (4,8 foiz), Buxoro (4,9 foiz), Andijon (5,0 foiz), Xorazm (5,2 foiz) va ayniqsa Navoiy (2,7 foiz) viloyatlariga xos.

Haydaladigan yerlarning eng mahsuldor va samarali qismi sug'orma yerlardir.

O'zbekiston - qadimdan sug'orma dehqonchilik mamlakati bo'lib kelgan. Sug'orma dehqonchilik oziq - ovqat sohasida Respublika mustaqilligining negizi va asosiy eksport mahsulotining manbaidir.

O'zbekiston hozirda jahonda sug'orma dehqonchilik markazlaridan biri hisoblanadi. Sug'oriladigan yerlarning umumiy maydoni salkam 4,3 mln. gektarni tashkil etib, uning asosiy qismi tuproq-suv sharoiti nisbatan qulay bo'lgan vodiya va vohalarda joylashgan. Farg'ona, Zarafshon vodiylari, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm vohalari shular jumlasidandir. 1960 yillardan so'ng sug'oriladigan yerlar maydoni ikki martadan ziyod ko'paydi. O'sish asosan Mirza-cho'l, Qarshi cho'li, Elikqal'a massivi hisobiga ta'minlangan.

Hozirgi kunda sug'orma dehqonchilik Qoraqalpog'iston Respublikasida va Qashqadaryo viloyatida yuqori darajada rivojlangan, qadimgi sug'orma dehqonchilik markazlari Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Surxondaryo, Xorazm, Andijon, Namangan viloyatlari o'zlarining mavqelarini saqlab qoldilar. Mirzacho'lning o'zlashtirilgan hududi o'rnida Sirdaryo hamda Jizzax viloyatlari barpo qilindi. Ushbu viloyatlarda bugungi kunda mamlakatdagi jami sug'oriladigan yerlarning 15,4 foizi to'g'ri keladi.

O'zbekistonda bog'lar va tokzorlar egallagan maydon salkam 0,4 mln.gektarga teng. Uning katta qismi Farg'ona vodiysi viloyatlariga hamda Samarqand (14,9 foiz) va Toshkent (12,8 foiz) viloyatlariga to'g'ri keladi. Demak, bog' va tokzorlarning asosiy qismi tog' oldi mintaqasi yaxshi rivojlangan viloyatlarda joylashgan. Bunga yana bir dalil - tog' oldi mintaqasi maydonining katta qismini egallagan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ham bog'dorchilik va uzumchilik yaxshi rivojlangan. Tekislik mintaqasidagi viloyatlarda esa (Sirdaryo, Xorazm, Navoiy va boshqalarda) bog'dorchilik va uzumchilik tarmog'i kichik maydonlarni egallagan.

O'zbekistonda so'ngi yillarda tomorqa xo'jaligini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda mamlakatda tomorqa va dala - bog' yerlarining umumiy maydoni salkam 0,6 mln gektarni tashkil etadi. Uning nisbatan katta maydonlari Samarqand, Toshkent, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlarida mavjud.

Yerlarning sifati ham yildan-yilga yomonlashib ularning unumdorligi pasaymoqda.

So'ngi 15-20 yil ichida tuproq unumdorligining eng muhim omili gumusning salmog'i 30-50 foizga kamaydi. Bugungi kunda gumus bilan ta'minlanganlik darajasi nihoyatda past (0,4-1 foiz) bo'lgan tuproqlar sug'oriladigan yerlarning salkam 40 foizini egallaydi.

O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarda yuz berayotgan sho'rlanish jarayoni ortib bormoqda. Sug'oriladigan yerlarning deyarli 52 foizi sho'rlangan. Shundan 40 foizga yaqini o'rtacha va kuchli sho'rlangan yerlardan iborat.

Minerallashgan grunt suvlar sathining balandligi va tuproqning sho'rlanganligi sug'oriladigan yerlarning sifatini va unumdorligini pasaytirmoqda, hamda qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini keskin kamayishiga olib kelmoqda.

Shamol va suv eroziyasi asosiy qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini 10-15 foizga qisqarishiga sabab bo'lmoqda.

Haydaladigan yerlarning asosiy xususiyati shundaki, ularga doimiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari ekinlari (ozuq-ovqat, texnik, sabzavot, ozuqa va hokazalar) ekilib turiladi.

Haydaladigan yerlarga barcha shudgorlar va yangi o'zlashtirilgan maydonlar kiradi. Haydaladigan yerlarda mahsulotlarni yetkazish uchun mehnat, urug', o'g'itlar, neft mahsulotlari va h.z.lar sarflanadi. Bu xarajatlar yetishtirilgan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi natijasida olingan mahsulot evaziga albatta qoplanishi kerak.

Boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlariga qiyoslaganda 1 ga. haydaladigan yerdan olingan mahsulot hosili eng yuksak ko'rsatkich hisoblanadi. Ana shundan kelib chiqib, yer maydonlaridan imkon qadar samarali foydalanish, uning o'lchamlarini kamaytirmay, iloji bo'lsa kengaytirib borish kerak.

Ko'p yillik daraxtzorlarga bog'lar, uzumzorlar, tutzorlar bodomzorlar, anorzorlar, anjirzorlar kiradi.

Bo'z yerlarga ilgari haydaladigan bo'lgan, ammo bir yildan ortiqroq muddat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun turli urug'larni ekishda foydalanilmaydigan yer maydonlari kiradi.

Yaylovlar-qishloq xo'jalik mulkining barqaror bo'lmagan vaqtinchalik ko'rinishidir. Shu sababli qishloq xo'jaligi ekinlari uchun yaroqli bo'lgan bo'z yerlar maydonlarini asta-sekin haydaladigan yerlarga aylantirish, bunga yaroqsizlaridan pichanzorlar va yaylovlar sifatida foydalanish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishda muhim vazifalardan hisoblanadi.

Chorvachilik uchun tabiiy ozuqa bazasi bo'lgan pichanzorlar va yaylovlar ham qishloq xo'jaligida mulk sifatida katta ahamiyatga ega. Bu maydonlar maysazorlar, tabiiy o'simliklar bilan qoplangan bo'lib, pichan olish yoki chorvani o'tlatish uchun mo'ljallangan.

Pichanzorlar va yaylovlar suvli, suvsiz, xo'jalik holatiga ko'ra sof, butazor, yosh daraxtzor bilan qoplangan, adirli va boshqacha turlarga bo'linishi mumkin.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yerlarini qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lmagan toifaga o'tkazish istisno holatlarda Respublika Yer kodeksida belgilangan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat yer kadastri O'zbekiston Respublikasida yerlarning tabiiy, xo'jalik va huquqiy qoidalari haqida zaruriy va ishonchli ma'lumotlar, yer uchastkalarining joyi va o'lchamlari, ularning sifatiiy tavsiflari, egalari, yerdan huquqiy foydalanish rejimi, bahosi va h.z.lardan iborat tizimni ifoda etadi.

Yerdan foydalanishning Davlat qaydi yer uchastkalari mulkchiligi, egaligi, ijarasi, foydalanuvchilari uchun ularning yerdan foydalanish huquqini rasmiylashtiradigan yuridik hujjat hisoblanadi. Ular tuman (shahar) ma'muriyati tomonidan xususiychilik, egalik, yerdan foydalanish huquqi Davlat aktlari kitobiga kiritiladi. Davlat qaydidan so'ng yerdan foydalanuvchiga yerga mulkchilik, umrbod merosiy egalik, muddatsiz foydalanish haqida Davlat hujjati beriladi. Bu yuridik hujjatda hududning nomi yerdan foydalanishning maxsus tartibi (sanitar - himoyalangan hududlar, tabiat muhofazasi, suv muhofazasi, tarixiy-madaniy ahamiyatga egalik va h.z.); uning umumiy maydoni, jumladan qishloq xo'jaligi mulkiga kiruvchi haydaladigan yerlar, yerdan foydalanishning amaldagi tartiblari ko'rsatiladi. Davlat yer kadastri muassasalarda yerni hisobga olishning asosiy hujjatlari: yerga mulkchilik, egalik va foydalanish haqida Davlat akti hamda Yer tizimi kitobi hisoblanadi.

Yer tizimi kitobida quyidagilar hisobga olinadi:

- yerlarning umumiy maydoni, shu jumladan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun belgilangan yerlar;
- haydaladigan yerlar, jumladan toshloqlar, ajriqli yerlar ham;
- ko'p yillik daraxtzorlar, jumladan, bog'lar va mevazorlar ham;
- yaylov va o'tloqlar, jumladan toshloqlar ham;
- barcha ko'rinishdagi pichanzorlar.

Yer tizimi kitobida shuningdek, yo'llar, chorvani haydov yo'llari, jarliklar ham hisobga olinadi. U yer sifatini: tuzlanish darajasi, toshloqzorligi kabi xususiyatlarining ifodalaydi. Bu kitobda tomorqa yerlari, jamoa bog'lari, ishlovchi va xizmatchilarning polizlari; meliorativ tayyorgarlik bosqichidagi yerlar ham alohida hisobga olinadi.

Yer tizimi kitobidagi ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun uni yuritish maqsadida taqdim qilgan xo'jalik rahbari, bosh agronom javobgar hisoblanadi.

5.2. Yerning, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi omili sifatidagi xususiyati.

Qishloq xo'jaligining asosiy xususiyatlaridan biri, bu agrar ishlab chiqarishining muhim omili bo'lib yerning xizmat qilishidir. Albatta, ishlab chiqarish kuchlarining joylashtirish joyi sifatida yer iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ishtirok etadi, ammo qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida yer faqat joy sifatida emas, balki bevosita ishlab chiqarish kuchi sifatida ishtirok etadi.

Qishloq xo'jaligida, birinchi navbatda yer hosildorligi, zaruriy ozuqa moddalarini madaniy o'simliklarga berish qobiliyati baholanadi. Shunday qilib, yer qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda ikki funksiyani bajaradi - ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish uchun joy va ishlab chiqarishning asosiy omili. Yerning uning ustki qismidagi tuproqning hosildorligi umuman bir xil emas. Ikkita bir-biriga yaqin joylashgan yer uchastkalari turli xil tuproq tavsiflariga va tuproq hosildorligining turlicha ko'rsatkichlariga ega bo'lishlari mumkin.

Shu munosabat bilan turli xil yer uchastkalarida bir xil natija olish uchun, boshqa ishlab chiqarish omillari - kapital va mehnatning turlicha xarajatlari talab qilinadi. Bundan tashqari qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi uchun yer uchastkalarining joylashuvi muhimdir. Albatta ishlab chiqarishning joylashuvi iqtisodiyotning har bir tarmog'ida ma'lum ahamiyatga egadir: bir xil ishlab chiqarish turlarini xomashyo bazalariga, ikkinchilarini iste'molchilarga joylashtirish samarali bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarish joylashuvining iqtisodiy omillari qishloq xo'jaligida ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining ayrim tarmoqlari iste'molchiga yaqin bo'lishga intilsa, boshqalari transport omiliga unchalik ta'sirchan emas. Refrijerator (muzlatgich) transporti, hamda tez buziladigan qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlarini konservasiyalash usullari rivojlanishi bilan, masofa omili o'z ahamiyatini yo'qotib bormoqda.

Ammo ishlab chiqarishni joylashtirishni iqtisodiy omilidan tashqari, qishloq xo'jaligida tabiiy iqlim omili ham muhim rol o'ynaydi. Samarali qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi uchun nafaqat tuproqning yuqori hosil-dorligi, balki boshqa tabiiy iqlim sharoitlari ham zarurdir: suv muvozanati, harorat rejimi, vegetasiya davrining davom etishi (qishloq xo'jalik ekinlari o'sishi va rivojlanishi mumkin bo'lgan davr) va boshqalar. Shuning uchun ham turli mintaqalar qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi uchun turli xil taqqoslama foydaga egalar. Uning ushbu xususiyati pasayishi mumkin: nooqilona agrotexnika, suv va shamol eroziyasi, antropogen ifloslanishlar va hokazolar unga sabab bo'ladi. Quritish va sug'orish, agroo'rmonmeliorasiya, kimyolashtirish singari meliorativ ishlar, yerlarning tabiiy hosildorligini oshirishlari mumkin. Bugungi kunda texnik taraqqiyotning rivojlanganlik darajasi hatto Yaqin Sharq singari dunyoning cho'l mintaqalarida ham dehqonchilik qilish imkoniyatini yaratadi, an'anaviy dehqonchilik hududlari esa yuqori va mustahkam hosillarga erishish imkoniyatini beradi.

XX asr o'rtalarigacha yer resurslari omili ustunlikka ega bo'ldi: qishloq xo'jaligi yerning mavjudligi va uning sifatiga juda ham bog'liq edi. Aynan shu sabab tufayli qishloq xo'jalik sohasida taklif elastikligi past bo'lgan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun oborotga ko'proq yer jalb etish lozim edi. Yerning miqdori cheklangan, qo'riq yerlarni o'zlashtirish esa vaqt va

investisiyalarni talab qiladi. Ammo ushbu tarmoqdagi texnik taraqqiyot, ishlab chiqarishni mexanizasiyalashtirish, kimyoviy vositalarni qo'llashni kengaytirish, seleksiya, genetik muxandisligi texnologiyalarini rivojlantirish bilan dehqonchilikning oborotga kiritilgan yer miqdori va sifatiga bo'lgan bog'liqligi pasayib bormoqda. O'simlikshunoslik mahsulotlarini ko'paytirish uchun ekinzorlar maydonini kengaytirish, qo'riq yerlarni o'zlashtirish shart emas, balki mineral o'g'itlar berishni ko'paytirish, kasalliklar va zararkunandalarga chidamli yuqori hosildorlikka ega

navlarni qo'llash yetarlidir. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari, (odatda ulardagi tabiiy ko'rsatkichlar dehqonchilik uchun unchalik yaxshi emas) dehqonchilik mahsuldorligi kamroq rivojlangan malakatlar (odatda ulardagi tabiiy ko'rsatkichlar dehqonchilik uchun qulay) dehqonchiligining, mahsuldorligi bilan taqqoslaydigan bo'lsak, ko'rinib turibdiki, rivojlangan mamlakatlardagi yuqori agrar texnologiyalar qishloq xo'jalik mahsulotining yuqoriroq taklifini ta'minlaydilar. (5.1 - jadval).

5.1-jadval

Dunyoning turli mintaqalarida bug'doy ekvivalenti ishlab chiqarishining nazariy maksimum va g'allaning real hosildorligi.

Mintaqalar	Nazariy maksimum, t/ga	Real hosil t/ga	Salohiyatning ishlatilishi,%
Janubiy Amerika	18,0	2,1	11,7
Afrika	14,3	1,2	8,4
Osiyo	13,2	2,8	21,2
Shimoliy va markaziy Afrika	11,3	4,2	37,2**
Yevropa	10,5	4,3	41,0
Avstraliya	10,4	1,7	16,3
Dunyoda o'rtacha	13,4	2,8	20,9

Qishloq xo'jaligida ishlatilishi mumkin bo'lgan yerlar miqdori, hozirgi kunda cheklangan. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jalik yerlarini kengaytirish imkoniyati umuman yo'q.

Aksincha, dunyoda shaharlar sanoat qurilmalari, kurortlar, infratuzilma tarmoqlari; yullar, tayyoragohlar, kommunikativ inshootlar tizimini rivojlantirmoqda. Bularning hammasi qishloq xo'jaligidagi yer maydoninig asta sekin kamayishiga olib kelmoqda.

Har bir alohida olingan fermer, vaqt oralig'ida yer maydonini kengaytirish uchun cheklangan imkoniyatlarga ega bo'ladi. Bu yer bozori iqtisodiyotidagi eng tor bozorlardan biridir - har yili oborotda qishloq xo'jalik yerlarining atigi 1-3 % band bo'ladi. Bu hol qisman qishloq xo'jaligidagi mehnat harakatchanligining pastligi bilan tushuntiriladi. Hattoki bankrotlikka uchragan yoki nafaqaga chiqib ketayotgan fermer ham yerni o'zida saqlab qolishni afzal ko'radi, bu oilaviy an'analar, qishloqdagi turmush tarzi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Qishloq xo'jaligida yerlarning ijara bozori ham faol emas: ijara shartlari kam o'zgarib turadi, ijaraga berilgan yer esa ijarachilarni undan ham kam almashtiradi.

Qishloq xo'jaligida yerni ishlatish munosabati bilan yana bir o'ziga xos iqtisodiy kategoriyasi yuzaga keladi- yer rentasi, ya'ni yer egasining yerga egalik qilishdan olgan daromadi.

Renta faqatgina yer munosabatlari bilan va faqatgina dehqonchilikda yuzaga kelmaydi, ammo qishloq xo'jaligida u barqaror xarakterga ega bo'ladi va agrar sohadagi iqtisodiy

munosabatlarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Yer o'zi bilan katta qiymatni aks ettiradi va qishloq xo'jaligidagi uzoq muddatli kreditlar bo'yicha kafolatlar uchun faol tarzda qo'llaniladi. Shunday qilib, yer agrar ishlab chiqarishning o'ziga xos omili bo'lib xizmat qiladi. Ushbu munosabat bilan deyarli barcha mamlakatlarning iqtisodiyoti va iqtisodiy huquqidagi unga bo'lgan munosabat ham alohida: alohida yer qonunchiligi, alohida soliqqa tortish, alohida ijara munosabatlarini tartibga solish, alohida yer dasturlari mavjud.

Xususan, davlat yer kafolatlarida yerlarning maxsus ro'yxatini olib boradi. U yerda yer uchastkalarining xuquqiy mavqeyi, biridan ikkinchisiga o'tishi, sifati va boshqa ma'lumotlar doimiy tarzda yozilib boradi.

«Qishloq xo'jalik yerlari» deganda, biz qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida ishlatiladigan yerlarni nazarda tutamiz. Ammo qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi ko'pgina tarmoqlardan iborat va ularning har biri yerlarni turlicha ishlatishadi. Bunga muvofiq qishloq xo'jalik yerlari tuzilmasi shakllanadi, ularning turkumlashishi esa deyarli butun dunyoda bir xil. Taxminan, barcha yerlarning deyarli yarmini haydaladigan yerlar tashkil etadi (ishlab chiqarishning ixtisosligi va mahsuldorligiga qarab). Haydaladigan yerlar deganda tizimli qayta ishlanadigan va turli xil qishloq xo'jalik ekinlarini ekish uchun ishlatiladigan yerlar tushuniladi. Qishloq xo'jaligi yerlarining ikkinchi katta qismi - yaylovlar yoki qishloq xo'jalik hayvonlarini boqish uchun ishlatiladigan o't qoplamasiga ega yerlardir. Sun'iy va tabiiy madaniy yoki ekilgan yaylovlarni farqlaydilar. Qishloq xo'jalik yerlarining yana bir muhim turi bu ko'p yillik ekinzorlardir: bog'lar, uzumzorlar, va h. Qishloq xo'jalik yerlarining bir qismi ishlatilmasdan, konservasiyalashgan bo'lishi ham mumkin. Yerlarning konservasiyasi ikkita sababga ko'ra amalga oshadi. Birinchisi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining tartibga solinishi davlat dasturini amalga oshirish. Ikkinchi sabab, uzoq muddatli bo'lib yer va suv resuslarini antropogen ta'sirdan himoyalash bilan bog'liq. Ayrim sabablarga ko'ra kuchli ifloslangan yerlar qishloq xo'jalik foydalanishidan chiqarilishi va tegishli qayta tiklanishi lozim.

Yer rentasi va yer narxi.

Dunyo iqtisodiyoti tarixini tahlili shuni ko'rsatadiki yer mulkchiligi bo'lgan joyda, yerdan foydalanish uchun o'ziga xos to'lov shakli ham mavjud bo'lgan - ya'ni ijara to'lovi. Bir vaqtlari maishiy darajada ijara to'lovini yer rentasi deb atashgan. Aynan shu nom bilan ushbu iqtisodiy fenomen ilmiy nazariyaga ham kirib qolgan.

Fiziokratlar, rentani sof mahsulot deb atab, u tabiat ne'mati va yer uning egasiga qo'shimcha mahsulot hadya etadi deb hisoblaganlar. Birinchi bo'lib rentaning iqtisodiy tabiatini D.Rikardo ko'rsatib bergan. U bozordagi g'allaning bahosi ishlab chiqarish xarajatlariga bog'liq emasligiga e'tiborini qaratgan: g'alla minimal xarajatlar bilan hosildor yerlarda ishlab chiqarilganmi yoki maksimal xarajatlar bilan qulay bo'lmagan sharoitlarda ishlab chiqarilganmi - uning narxi bir xil. D.Rikardo shunday deb yozgan: «Non renta to'langanligi uchun qimmat emas, non qimmatligi uchun renta to'lanadi. Yer egalari o'z rentasidan voz kechgan taqdirda ham, non narxi pasaymas edi.» Bu degani, yaxshi yerlarda faoliyat yurituvchi g'alla ishlab chiqaruvchilar, yomon yerlarda faoliyat yurituvchi g'alla ishlab chiqaruvchilarga nisbatan oladigan qo'shimcha daromadni D. Rikardo yer rentasi deb atagan.

Bunda, g'allaning berilgan narxida faoliyat yuritish zararli bo'lmagan eng yomon yerlar, chegaraviy yerlar deb aytiladi. Chegaraviy yerlar tushunchasining nisbiyligi ko'rinib turibdi. Birinchidan, g'allaga bo'lgan talab nuqtai - nazaridan chegaraviy bo'lgan uchastkalar, masalan, yaylovlar chorvachilikni rivojlantirish uchun umuman chegaraviy bo'lmashliklari mumkin. Ikkinchidan, qishloq xo'jalik mahsulotiga bo'lgan talabning harakatchanligi oqibatida, chegaraviy yerlar talab kengayganda yuqori hosildor yerlardan kamroq hosilli yerlarga o'tadilar, talab qisqarganda esa - aksincha. Ammo har bir vaqt oralig'i uchun shunday chegaraviy yerlar mavjudki, ulardagi ishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining narxi bilan qoplanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotiga bo'lgan talab tushib ketsa, aynan ushbu yerlar, birinchi navbatda qishloq xo'jaligi foydalanishdazn chiqarilishi mumkin.

Shunday qilib, yer rentasi bu chegaraviy va chegaraviy bo'lmagan yerlarda ishlab chiqarilgan

qishloq xo'jalik mahsu-lotini sotish natijasida olingan daromaddagi farqdir.


Ammo D. Rikardo yana bir holatga o'z e'tiborini qaratgan: yerdan foydalanganlik uchun renta to'lovi, yer miqdori cheksiz va uning sifati bir xil bo'lmaganligi uchun to'lanadi. Haqiqatdan ham,

yangi yerlar o'zlashtirilayotganda hosildor yer, aholi ehtiyojlariga yoki aholida mavjud kapital bilan ishlanishi mumkin bo'lgan yerga nisbatan juda ko'p bo'ladi va yer rentasi mavjud bo'lmaydi. Hyech kimning egaligida bo'lmagan yer turganda hyech kim yerdan foydalanmaganligi uchun to'lamaydi. Shunday qilib yer rentasi birinchidan, yer ishlab chiqarish omili sifatida bir xil emasligi va ikkinchidan uning cheklanmaganligi sababli yuzaga keladi.

Yer rentasining kelib chiqishini izohlash uchun ko'rgaz-maviy misol keltiramiz. Faraz qilaylik, mamlakatimizdagi barcha korxonalar elektr mashinalari yordamida ishlaydi, bitta korxonada hududida esa sharshara mavjud, uning tabiiy kuchini faqatgina o'sha korxonada ishlatiladi. Demak, ushbu korxonada boshqalarga nisbatan qo'shimcha daromad oladi. Sharshara cheklangan hodisa, har bir korxonada ham unga egalik qila olmaydi, demak sharshara egasi doimiy ravishda qo'shimcha daromad, ya'ni renta olib turadi. Yer rentasi - ishlab chiqarish omili - yer uchun to'lovdur. Ammo renta, boshqa ishlab chiqarish omillariga (ish haqi, ssuda foizi) bo'lgan to'lovlardan farqli o'laroq, o'ziga xos tabiatga ega. Rentaning o'ziga xosligi shundaki, u yer resursi cheklanganligi sababli yuzaga keladi.

Faraz qilaylik, qishloq xo'jalik oborotiga jalb etilishi mumkin bo'lgan yerlar sifati bir xil bo'lsin. Qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari bir xil mahsulot ishlab chiqarishsin. Yerning ijara bozori ham raqobatdosh bo'lsin: ko'pgina fermerlar yerni ijaraga olmoqchi va ko'pgina yer egalari uni ijaraga bermoqchi. Ishlab chiqarishning istalgan boshqa bir omili bozorida, bunday sharoitlarda, omil narxi, talab va taklif ta'siri ostida shakllangan bo'lar edi: yuqori narx taklif kengayishiga, taklif o'sishi esa narx pasayishiga olib kelar edi. Muvozanat, bozorning har ikkala tashkil etuvchisi ta'siri ostida o'rnatilar edi. Biz aniqlaganimizdek, yer cheklangan resurs va yer taklifi kengayishi mumkin bo'lgan bir necha xususiy holatlarni e'tiborga olmasak, bunday takliflar egri chizig'i umuman vertikal ko'rinishni oladi. Yerga bo'lgan talab esa, (buni D. Rikardo ko'rsatgan edi) qishloq xo'jalik mahsulotiga (bizning misolimizda monomahsulot) bo'lgan talab ta'siri ostida shakllanadi. Natijada, yer rentasi 3.1-rasmda ko'rsatilgandek shakllanadi. S - yer taklifi absolyut noelastik va rentani aniqlashda ishtirok etmaydi.

Yerga bo'lgan talab D_1 dan D_2 gacha kamayganda, yer rentasi kattaligi R_1 dan R_2 gacha tushadi. Bunda talab D_3 ga qadar tushganda yer rentasi umuman yo'qolishini kuzatsa bo'ladi. Yer rentasining kattaligi yer uchastkasining sifatiga bog'liqligi haqida fikrni tasdiqlash uchun misol tarzida sifat jihatidan bir xil bo'lgan yerlarni ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Hosildorligi turlicha bo'lgan uchastkalarni ko'rib chiqaylik. 5.1-rasmda o'lchami bir xil Q^* ammo sifati turlicha bo'lgan 3 ta uchastka tasvirlangan bo'lsin. D_1, D_2 va D_3 chiziqlari esa bu talab o'zgarishlari emas, balki har bir uchastkadagi boshqa kerakli resurslar bilan birgalikdagi yerning hosildorligi bo'lsin.



5.1-rasm. Yer rentasini aniqlash.

Shunday qilib, 1-sonli yer uchastkasi hosildorligi eng yuqori, 3-sonli yer uchastkasi hosildorligi eng past.

Natijada 1-sonli uchastka egasi Ri rentani oladi, 3-sonli uchastka esa chegaraviydan ham yomon va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishidan chiqarib tashlanishi lozim.

Bunda yer sifatini nafaqat hosildorlik bo'yicha, balki joylashuvi (bozorlar, transport kommunikasiyalari va boshq) nuqtai-nazaridan ham ko'rish mumkin. Eng yaxshi joylashgan yer uchastkasi, eng yuqori rentani olib keladi va aksincha.

Shu vaqtgacha yer rentasi, yerni ishlab chiqarish resursi sifatidagi bir xil emasligi va cheklanganligidan kelib chiquvchi, qo'shimcha foyda deb ta'riflanar edi. Butun jamiyat nuqtai-nazaridan bu xuddi shunday: yer-tabiati ne'mati va ishlab chiqarish xarajatlariga ega emas. Ammo, har bir ishlab chiqaruvchi uchun yer rentasi bu ishlab chiqarish xarajatlaridir. Nimaga shunday? Umuman jamiyat yerni ishlatishni alternativ variantlariga ega emas: yer rentasi to'lanadimi yoki yo'qmi, jamiyat ushbu yerni ishlatuvchi yagona subyektdir. Shuning uchun ham umuman jamiyat uchun yer rentasi-bu foyda ammo, mikrodarajada yer uchastkasini ishlatishning ko'p sonli variantlari mavjud: g'alla ekish, yaylov qilish yoki umuman qishloq xo'jaligiga ishlatmasdan uy, savdo markazi yoki zavod qurish. Har bir muayyan korxonaga, yerni o'z maqsadlarida ishlatishi uchun xaq to'lashi lozim. Shuning uchun ham renta u uchun ishlab chiqarish xarajatlari hisoblanadi.

5.1 rasmda qisqa muddatli vaziyat nomoyish etilgan, unda yer, ishlatishning muayyan turi uchun boshqa sohalaridan qayta taqsimlash yo'li bilan olinishi mumkin emas. Ammo haqiqatda, yer ko'p funksional xarakterga ega. o'rmon yerlari qishloq xo'jaligiga, qishloq xo'jalik yerlari esa shahar qurilishlariga berilishi mumkin.

Yer ijarasida, yer rentasi ijara to'lovi ko'rinishida yer egasiga borib tushadi. Ammo agarda fermer o'z yerida faoliyat yuritayotgan bo'lsa, u ijara xaqini to'lamaydi. Bu degani, yer rentasi yo'qolishini bildiradimi? Albatta yo'q: bu holda renta fermerning o'zida qoladi va u o'z mahsulotini sotishdan olgan foydaga qo'shilib ketadi. Bunday renta shartli hisoblangan renta deb yuritiladi.

Yer rentasi-yer uchastkalari narxining asosi hisoblanadi. Yer egasi, yerni sotishdan oldin olayotgan ijara haqiga teng miqdordagi yillik daromad olishni istaydi. Shunday qilib, yer narxi kapitallashtirilgan yer rentasi bo'lib u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$V=R/r \quad (5.1)$$

bunda: V- yer uchastkasining joriy narxi;

R- ushbu uchastkadan kutilayotgan ijara to'lovi;

r- kapitallashtirish me'yori.

Kapitallashtirish koeffitsiyenti bozor foiz stavkasi singari aniqlanadi.

Shunday qilib, yer narxi ijara to'loviga to'g'ri va kapitallashtirish me'yoriga teskari proporsional. Yuqori real foiz stavkasi, boshqa sharoitlar bir xil bo'lganda yer narxini pasaytiradi, bir vaqtning o'zida past foiz stavkalari, ijara to'lovlari bir xil bo'lganda, yerlarning qimmatlashib ketishiga olib keladi.

Bu yerni baholashning eng umumiy nazariy modelidir. Empirik tadqiqotlar shunday fikrga olib kelgan, qishloq xo'jaligida, odatda baholanadigan bir gektarga bo'lgan qaytimdan (qaytarishdan) tashqari, yer egasi yer rentasining muntazam o'sishi (yoki kamayishi) dan oladigan qo'shimcha daromad (yoki xarajatlar)ni ham hisobga olishi lozim. Boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqli ravishda, yer uchun kapitalga bo'lgan qaytim (qaytarish)ning bunday turi ammortizatsiya qilinmasligi, ya'ni vaqt o'tishi bilan o'z qiymatini yo'qotmasligi (to'g'ri foydalanganda, albatta,) bilan ham tavsiflanadi. Shuning uchun ham yer narxining aniqroq formulasi paydo bo'ldi:

$$V= R(1+g)/(r-g) \quad (5.2)$$

bu yerda: g- inflyatsiyaning umumiy darajasi bilan taqqoslangandagi yer rentasi o'sishining qo'shimcha indeksi;

Ikkinchi jahon urushidan 1980 yillarning boshlarigacha yer narxlari uzluksiz o'sib kelgan, iqtisodiy o'sish davrlarida o'sish tezlashgan, yer narxlarining o'sishi sur'atlari doimo

inflyasiyaning umumiy darajasida yuqori bo'lib qolgan. 1980 yillar o'rtalarida g'arb mamlakatlari yer narxlarini keskin tushib ketishini (nominal hisoblan-ganda 10-20 % ga) boshdan kechirdilar. 1990 yillar o'rtalaridan yana o'sish davom etdi.

Ko'pgina potensial yer sotuvchilari va xaridorlari yer bozori narxlariga to'g'risida yetarlicha aniq axborotga ega emaslar. Birinchidan, bunday axborot tarqalishiga yer uchastkalari bozorining past faolligi to'sqinlik qiladi. Ikkinchidan, yerning real narxiga uning o'lchami, joylashuvi, hosildorligi, suv bilan ta'minlanganligi, ya'ni ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, yer narxiga noqishloq xo'jalik maqsad-lari uchun foydalanadigan yerlarga bo'lgan talab ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Yevropaning aholi zich joylashgan hududlaridagi qishloq xo'jaligi yerlarining narxi, aholi zich bo'lmagan hududlar-dagiga nisbatan yuqori. Shunday qilib, potensial agentlar nigohi ostida bo'lgan yer bozori narxlar to'g'risida mustahkam va aniq axborot bera olmaydi. Shuning uchun ham deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda yer uchastka narxlarini aniqlovchi ekspertlar, mutaxassis ko'chmas mulk baholovchilari instituti mavjud. Aynan shu soha bo'yicha potensial sotuvchi va xaridor ushbu narx shakllanishiga tegishli bir xil axborotga ega bo'lib bitim tuzishga tayyor bo'ladi.

Yerni baholash uslublari. Yerni baholashda, baholashning bir necha uslublar qo'llaniladi. Yerni baholashning asosiy uslubi sotishlarni taqqoslash uslubidir. Bunga muvofiq baholovchi, berilgan joydagi yer bilan bo'lgan bitimlar to'g'risida axborot yig'adi, u bir-biriga yaqin joylashgan uchastkalarining narxlari taxminan bir xil bo'lishi kerak deb tasavvur qiladi. Bunday turdagi axborotni yig'ishda, bitim shartlari qanchalik tipik bo'lganini ham baholash va ularning ichidan bir xil shartlarda tuzilgan bitimlarni olib tashlash lozim.

Sotuvlarni taqqoslash uslubidan foydalanganda ikkita yondashuv mavjud. Har bir yer uchastkasi aniq bir tavsiflar to'plamiga ega: o'lcham, infratuzilmalarning joylashganligi, suv manbaining mavjudligi, konfigurasiya va hokazo. Uchastkaning narxi tavsifning har biriga bog'liqdir.

Sotuvlarni taqqoslash uslubiga bo'lgan birinchi yondashuvda, hududdagi tahlil qilinayotgan yer bitimlari bo'yicha uchastkaning har bir muayyan tavsifining o'rtacha yoki tipik qimmatligi aniqlanadi. Keyinchalik baholanayotgan uchastka narxi tegishli tavsiflar qimmatliklarini summasi sifatida aniqlanadi.

Ikkinchi yondashuvda, narxi aniqlanishi lozim bo'lgan real uchastka tanlanadi yoki gipotetik asos uchastka modellashtiriladi. Keyinchalik, muayyan baholanayotgan uchastka tavsiflari asos uchastkaniki bilan solishtiriladi va uning narxi aniqlanadi. Bunda, bahoga ular orasidagi yoki ayrim tavsiflarning o'rtacha qiymat baholaridagi farqiga nisbatan o'zgartirishlar kiritiladi.

Faraz qilaylik, baholanayotgan uchastka o'lchami asos uchastkanikidan 10 % ga katta, uning infratuzilmaviy qulayliklari esa -15 % ga yomon, unda uning bahosi uchastka narxidan 5 % ga kam bo'ladi.

Yer bozori tor bo'lib, sotuvlar uslubi uchun axborot yetarli bo'lmasa, yuqorida keltirilgan yer narxini hisoblash formulasiga asoslangan sotuvlarni kapitallashtirish uslubi qo'llaniladi. Ammo bunda ham, muayyan baholanayotgan yer uchastkasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib o'zgartirishlar kiritish lozim bo'ladi.

Yer uchastkasining narxi aniqlanayotganda, nafaqat yerning o'zi, balki u bilan bog'liq uy-joy va ishlab chiqarish binolari, inshootlari ham baholanadi.

Yer uchastkasining baholangan qiymati sotuvchiga ham xaridorga ham foydali bo'lgan axborotni beradi. Bu esa ularga bitim tuzishda o'z strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi. Bunga qaramasdan yerning boshlang'ich bahosi - bu hali real narx emas. Yer narxi bevosita bitim tuzish jarayonida shakllanadi.

5.3. Suv manbalaridan samarali foydalanish va suv ishlatishni rivojlantirish.

O'zbekistonda irrigasiya tizimlarini boshqarishning ma'muriy-hududiy prinsipidan havza prinsipiga o'tishni ko'zda tutuvchi, suv resurslarini boshqarish, shuningdek suvdan foydalanishda bozor tamoyillarini barcha darajada tadbiiq qilish amalga oshirilmoqda.

Irrigasiya tizimlari havza boshqarmalarining vazifalari qilib quyidagilar belgilangan:

- suv resurslaridan maqsadli va oqilona foydalanishni tashkil etish;
- iste'molchilarni suv bilan uzluksiz va o'z vaqtida ta'minlashni tashkil etish;
- suv xo'jaligida yagona texnika siyosatini o'tkazish;
- suv iste'molchilari bo'yicha suv resurslaridan foydalanishning aniq hisobi va hisobotini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasining suv xo'jaligi majmui (SXM) o'z ichiga murakkab tashkiliy-texnik va iqtisodiy mexanizmni birlashtiradi.

Ushbu tizim mamlakatning barcha hududida suv olib kelish va olib ketish tizimining me'yoriy ishlashini ta'minlaydi va yuz minglab suv iste'molchilari va suvdan foydalanuvchilarga xizmat qiladi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi sektoridagi asosiy mahsulot ishlab chiqaruvchi, eng katta suv iste'molchisi-bu sug'oriladigan dehqonchi-likdir.

Suv resurslari. Umuman olganda Amudaryo va Sirdaryo havzalarida mavjud suv resurslari 133,6 km.kubni tashkil etadi.

Ko'rsatilgan hajmdan O'zbekistonga to'g'ri keladigani 72,4 km.kub, shundan 61,1 km.kub sug'orishga va 11,3 km.kub boshqa iste'molchilarga sarflanmoqda.

5.2-jadval.

O'zbekiston Respub	likasining ustki suv resurslari.
Havza-daryo	O'rtacha ko'p yillik hajm, km kub.
Amudaryo suv havzasi	
Surxondaryo	3,25
Qashqadaryo	1,06
Zarafshon	0,51
Jami:	4,82
Sirdaryo suv havzasi	
Farg'ona vodiysining:	
Kichik daryolari	1,50
O'rta oqim daryolari	0,36
Chirchiq, Angren	4,79
Jami:	6,65
Jami Amudaryo va Sirdaryo havzalari	11,47

O'zbekiston Respublikasining bor suv resurslari qayta tiklanadigan, tabiiy yer osti va yer usti hamda antropogen asosli qaytib keluvchi suvlardan iborat.

Yuqorida ko'rsatilgandek, o'z-o'zini boshqarish bosqichma-bosqich shakllangan suvdan foydalanuvchilardan suvni tejashda o'ziga xos o'rin tutish taqazo etiladi. Bu jarayonda uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- birgalikda va kelishilgan holda suv resurslarini boshqarish;
- asoslangan suv iste'moli limitini aniqlash va unga rioya etilishini nazorat qilish;
- suv samarasiz va asossiz ishlatilishi ustidan nazorat o'rnatish;
- o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlashni tashkil etish, suv resurslarini xo'jalik va tuman ichida boshqarish;
- suvni tejimli va samarali ishlatishni rag'batlantirish.

Zamonaviy suv xo'jaligi dastur va loyihalarini ishlab chiqish jarayonining o'ziga xos xususiyati suvni tejash, texnik muammolar bilan birga iqtisodiy va tashkiliy muammolarni ham yechishdan iborat. Shuningdek, suvni tejash bilan bog'liq iqtisodiy choralar nafaqat davlat tomonidan olinadigan daromadlarni yo'naltirishga va xarajatlarni qoplashga, balki suvdan foydalanuvchilarda suvga bo'lgan yangicha munosabatni shakllantirishga, azaliy ehtiyotkorona munosabatlarni tiklash, cheklangan suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy rag'batlantirishga

qaratilgan.

Meliorasiya tizimi. umumiy yer maydoni 2004 yil 1 yanvardagi ma'lumot bo'yicha 44,896,9 ming gektar, shundan sug'oriladigan maydon 4273,3 ming gektar yoki umumiy maydonning 10,8%ni tashkil qiladi holos.

Sug'oriladigan yerlardan olinadigan mahsulotlar umumiy qishloq xo'jaligidan olinadigan mahsulotlarning 95%ni tashkil etadi. Shuning uchun sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish, ularni unumdorligini oshirib borish, har bir gektar yerdan kafolatlangan yuqori sifatli, arzon mahsulot olish muammo bo'lib qolmoqda.

Bu muammolarni hal qilishda meliorasiya fanining ahamiyati juda katta. Chunki sug'oriladigan yerlarning 45-50% sho'rlangan va botqoqlangan, 68,8% erroziyalangan 10-12% gipsli, karbonatli tuproqlardan iborat.

O'zbekistonda tuproqning sho'rlanishi, botqoqlanishi, erroziyasi, garmsel shamoli va suv ta'minotining pastligi, qumliklarning ko'chishi tufayli sug'oriladigan yerlardagi qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi taxminan 50-60%gacha kamayib sifatsiz, zaiflashgan bo'ladi.

Masalan sho'rlanmagan yerlarda paxta va bug'doy hosil-dorligi 40-50 s/ga gacha bo'lsa, sho'rlangan yerlarda esa uning hosildorligi 15-20 s/gadan oshmaydi. Tuproqning sho'rlanishi, botqoqlanishi va erroziyasi natijasida daraxtlar quriydi, binolar, gidrotexnik inshootlar, yo'llar yemiriladi.

Respublikamizda uchraydigan erroziya turlaridan eng ko'p tarqalgani shamol erroziyasidir. Shamolning ta'siri xususiyatiga qarab Respublika hududi uchga bo'lingan:

-shamol kuchsiz esadigan hududlar (shamol tezligi 6 m/s), maydoni 6,66 mln.ga;

-shamol o'rtacha esadigan hududlar (shamol tezligi 6-12 m/s) maydoni 35,08 mln.ga;

-shamol kuchli esadigan hududlar (shamol tezligi 12 m/s dan yuqori), maydoni 2,67 mln.ga.

Shamol erroziyasiga va shamolning o'simliklarga zararli ta'siriga 21,4 mln.ga (ya'ni 80 foizdan ziyodroq) qishloq xo'jaligi yerlari uchragan.

Yerlarni shamol va suv erroziyasidan himoyalash qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada rivojlantirishdagi asosiy muammolardan biridir. "O'zdaverloyiha" instituti Respublikani boshqa ilmiy-tekshirish va loyihalash tashkilotlari bilan birgalikda "O'zbekiston Respublikasi bo'yicha erroziyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari loyihasi"ni ishlab chiqqan. Mazkur loyihada erroziyaga qarshi chora-tadbirlar majmuasi, hajmi va bajarish tartibi belgilangan.

Shirkat va fermer xo'jaliklari hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarini kuchi bilan har yili agrotexnika va tashkiliy xo'jalik tadbirlari majmuasini bajarish kerak. Bulardan zaruriylarini quyidagilar tashkil qiladi:

O'zbekistonda toshloq yerlarni o'zlashtirish jarayonida meliorasiyaning roli juda kattadir.

Bu yerlarni suv bilan ta'minlash uchun 34ta suv ombori, 180 ming km. xo'jaliklararo kanallar, 230 ming km. xo'jalik kanallari, 92ta gidrotexnik inshootlar, yerni qulay meliorativ holatini ta'minlash uchun 120 ming km. kollektor zovurlar tarmoqlari qurilgan va ulardan foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Yangi yerlarni o'zlashtirish, qadimdan sug'oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash, sug'orishning eng tejamli tartiblarini va usullarini ishlab chiqish, hamda ishlab chiqarishda qo'llash tufayli qishloq xo'jalik ekinlarini yuqori kafolatlangan hosil olinmoqda.

5.4. Sug'orish tizimi va suvni tejoychi yangi sug'orish texnologiyalaridan foydalanish.

Sug'oriladigan dehqonchilikni rivojlantirish va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish sug'oriladigan yerlarda suv tanqisligini vujudga keltiradi. Bu esa o'z navbatida xo'jalik sug'orish tizimlarida suvni behuda nobud qilmaslik, suv sarfini kamaytirish, sug'orish usullarini takomillashtirish bo'yicha qator tadbirlarni amalga oshirish va suvdan foydalanishni qat'iy hisobga olib borish tartibini joriy etishni talab qiladi.

Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish uchun respublikada har yili 54-58 mlrd. kub.m atrofida suv sarflanadi.

Tuproqdan sizib yo'qoladigan va sug'orish tizimlari takomillashtirilmaganligi tufayli isrof bo'ladigan suv miqdori 35-40 % ga yetib boradi.

O'zbekistonda ekinlarni sug'orishda foydalaniladigan suv asosan o'z oqimi bilan keladigan suv bo'lib, asosiy sug'orish usuli qator oralari ishlanadigan ekinlar va yem-xashak ekinlarini egatlar orqali sug'orish hisoblanadi. Ana shu usulda respublikamizda 4,2 mln. gektardan ko'proq haydaladigan yerlar sug'oriladi (5.10-jadval).

Kelajakda sug'orish usullari va texnikasini takomillashtirish, sug'orish tizimlariga xizmat qilishni tegishli yo'lga qo'yish, mavjud sug'orish mashinalarini takomillashtirish va shu asosda egatlar orqali sug'orish uchun suv yetkazib berishga qilinadigan qo'l mehnati sarflarni kamaytirish talab qilinadi.

Sug'orishning tejamli usullari keng joriy etmaganligi va suvchilarning ishi ustidan nazoratning sustligi tufayli suvdan foydalanish koeffitsiyenti past bo'lib, u 0,35-0,50 % ni tashkil etadi.

Dehqon, fermer va shirkat xo'jaliklarining sug'orish tizimini yurituvchi xodimlar faqat suv olish ishlari bilangina shug'ullanib qolmasdan balki suvni doimiy tar-moqlar orqali taqsimlashlari, sug'orish shaxobchalarining qanchalik sozligini kuzatib borishlari, sug'orishning yangi texnikasi va sug'orishni mexanizasiyalashtirish bo'yicha erishilgan fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishlari, shuningdek suvdan tejamkorlik bilan foydalanish darg'alari bo'lishlari lozim. Chunki, xo'jalikda yetishtirilayotgan mahsulot tannarxini kamaytirish asosan sug'orish tizimida xizmat ko'rsatish darajasiga ham bog'liq. Xo'jaliklararo sug'orish tizimlarining foydali ish koeffitsiyenti

0,85-0,90 ni tashkil etsa, xo'jalik sug'orish tizimlari bo'yicha 0,45-0,50 ni tashkil etmoqda.

Shunga ko'ra, xo'jalik sug'orish tizimlarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish uchun har 1000 gektar sug'oriladigan yer hisobiga kamida 3-4 ta suv o'lchash - taqsimlash inshootlari va 4-5 kishidan iborat suv taqsimlovchilar hamda 20-40 kishidan iborat xo'jalik suv taqsimlovchilari bo'lishi kerak. Bu xildagi sug'orish tizimida 3-4 tagacha to'g'on bo'lib, bular 10-20 tagacha suv taqsim- lagichlar uchun xizmat qilishi lozim. Har gektar sug'oriladigan ekin maydoni hisobiga 20-30 m. sug'orish tarmog'i to'g'ri kelishi kerak, bunda suvning chuqur qatlamlari yerga sizib ketishi va oqova tarzida yo'qolishi kamayadi. Shunday qilib, paxtachilik bilan shug'ullanadigan xo'jalik-larda suvdan foydalanish koeffitsiyentini oshirish maqsadlarida takomillashtirish xo'jalik sug'orish tizimlari barpo etilishi, ular uchun xizmat ko'rsatadigan malakali mutaxassislar ko'paytirilishi kerak. Bu esa sug'orishning takomillashtirilgan usullari va texnikasini joriy etish, suvdan tejamkorlik bilan foydalanish, tuproqning meliorativ holatini yaxshilash va gidrotexnik inshootlar hamda sug'orish kanallarini soz holda saqlash imkoniyatini beradi. Shuningdek, suv taqsimlashni mexanizasiyalashtirish va avtomatlashtirishga ham katta ahamiyat berish lozim.

5.5. Sug'orish tizimlarida va xo'jaliklarda suvdan rejali foydalanish

Shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklari suvdan foydalanish huquqiga egadir. Qonun bo'yicha belgilangan tartibda qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish ishlari tuman hokimiyatlari tomonidan tasdiqlangan reja asosida amalga oshiriladi.

Suvdan foydalanish bo'yicha xo'jalik rejasi shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklarining yillik ishlab chiqarish va moliya rejasining bir qismi hisoblanadi.

Suvdan rejali foydalanish almashlab ekishdagi qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish tartibi, u ekinlarni sug'orish rejimiga qarab (har qaysi ekin uchun alohida holda) tuziladi va xo'jalikning qabul qilingan almashlab ekish dalalarining hamma maydoni uchun suvga bo'ladigan yillik ehtiyojini ko'rsatadi. Xo'jalikning suv bilan ta'minlanganlik darajasi gidromodul bo'yicha har gektar sug'oriladigan maydonga bir soniya ichida litr hisobida beriladigan suvning o'rtacha miqdori bo'yicha hisoblab chiqiladi.

Sug'orish tizimlarida suvdan rejali foydalanishni joriy etish xo'jaliklarga suvni o'z vaqtida yetkazib berish, uni dalalar bo'yicha bir maromda taqsimlash va o'simlikni suv bilan mo'tadil muddatlarda ta'minlashga mo'ljallangan bo'ladi. Bunga faqat hamma almashlab ekiladigan ekinlar uchun alohida sug'orish rejimli tartibini joriy etish yo'li bilan erishish mumkin.

Suvdan foydalanish xo'jalik rejasida xo'jalikning ayrim almashlab ekish uchastkalari va butun sug'oriladigan yer maydoni uchun umumiy yillik suvdan foydalanish hajmi keltiriladi.

Suvdan foydalanish rejasi vegetasiya davri va vegetasiya davridan tashqari vaqtlar uchun tuziladi. Jumladan, vegetasiya davri uchun tuzilgan rejada g'o'za, beda, makkajo'xori, sabzavot va poliz ekinlarini, shuningdek bog' va tokzorlarni sug'orish uchun talab etilayotgan suv sarfi ko'rsatilgan bo'ladi. Vegetasiya davridan tashqari o'tkaziladigan sug'orishlar rejasida yerlarni haydash oldidan sug'orish, sho'r yuvish va ekin oldidan o'tkaziladigan sug'orishlar uchun bo'lgan ehtiyoj hisoblab chiqiladi.

Ko'zda tutilgan suv miqdori tuproqning hisobiy qatlamini mo'tadil darajada namlash va tuproqda o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi va mo'l hosil to'plashi uchun zarur bo'lgan namlikni ta'minlash uchun yetarli miqdorda bo'lishi lozim.

Xo'jaliklarda suvdan foydalanishning tizim bo'yicha va xo'jalik ichidagi shkalalari farqlanadi. Suvdan foydalanishning tizim bo'yicha rejasi sug'orish tizimidan foydalanish xizmati tomonidan tuzilib, shuningdek maydonlar tuzilmasining o'zgarishiga va qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish reja-topshiriqlariga qarab o'zgarib turadi.

Suvdan foydalanish rejasini tuzishda butun tizim bo'yicha, chunonchi sug'orish shoxobchalarini ish holatida tutish, ya'ni yuqori hosil olish uchun agrotexnika tadbirlarini o'z muddatida bajarish va tizimni texnik jihatdan soz holatda saqlash imkoniyatlari ko'zda tutiladi. Suvdan foydalanish rejasida dastlab xo'jalikning suvga bo'ladigan ehtiyoji belgilanadi.

Xo'jalikning suvdan foydalanish rejasi asosiy dastur bo'lib u umuman olinadigan suv miqdorini va uni butun bir sug'orish tizimlariga yetkazib berishni va undan tartibli foydalanishni belgilaydi. Suvdan foydalanishning xo'jalik ichidagi hisob elementlari butun bir tizim bo'yicha reja tuzish uchun asos sifatida xizmat qilib, u xo'jaliklararo sug'orish tizimlarining hamma tarmoqlari bo'yicha suvni taqsimlab berishni ko'zda tutadi.

Suvdan rejali tartibda foydalanish ortiqcha suvni xo'jalikka keltirishga yo'l qo'ymaydi, shuning hisobiga ko'plab suvni oqova holda tashqariga chiqarib yuborish va tuproqning pastki qatlamlariga sizib yo'qolishining oldi olinadi, sug'orishdan keyin tuproqqa o'z vaqtida ishlov berishni ta'minlaydi, suvni sug'orish egatlariga taqsimlab berishni mexanizasiyalashtirish imkonini beradi.

Xo'jaliklarda suvdan foydalanish ma'sulyatini oshirish uchun suv avtoregulyatorlaridan, telemexanika qurilmalaridan va hisoblash mashinalaridan (ichki xo'jalik tarmoqlarida suvdan foydalanishni operativ aniqlash uchun) tobora keng foydalanilmoqda. Xo'jalik tizimida suvni avtomatik ravishda taqsimlab beradigan uskunalardan foydalanish, suvdan foydalanish rejasini aniq bajarish, eng kam qo'l mehnati sarflangan holda suvdan tejamkorlik bilan foydalanish imkonini beradi.

EHM ni qo'llab suv taqsimoti ustidan nazorat o'rnatish sug'orish manba'larida mavjud bo'lgan suv rejimi haqida uzoq muddatli va qisqa muddatli axborot berib turishga, shuningdek tuproq namligi rejimi dinamikasi hamda sug'orishning borishi haqida axborot berib turishi uchun imkoniyat yaratadi.

Suvdan foydalanish va uni taqsimlash rejalarini tuzishda ob-havoning qanday bo'lishi, ekinlarni o'sish dinamikasi va g'o'zaning o'sib rivojlanishi hisobga olinadi.

Tizimga beriladigan suvni egatlar orqali sug'orishda mexanizasiyaning yangi vositalarini hisobga olgan holda avtomatik sozlash uskunalari joriy etiladi.

Suvdan foydalanish va qishloq xo'jalik ekinlari uchun yerlarni tayyorlash rejalarini bajarilganligi koeffitsiyenti quyidagi ifoda orqali hisoblab chiqiladi

$$SFK = 1 - Ye = \frac{Q_s}{Q_g} \quad (5.1)$$

" • Qg

bunda Qg - xo'jalikka o'n kunlikda kelib turadigan o'rtacha suv miqdori:

Qs - xo'jalikka bir kecha-kunduz davomida kelib turadigan o'rtacha suv miqdori:

n - o'n kunlikdagi sug'orish o'tkaziladigan kunlar soni:

o'n kunlik davomida reja bo'yicha berilishi lozim bo'lgan va haqiqatda berilgan suv oqimi quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi

$$W = 0,0864 \times Q_g \times n, \text{ ming m.kub} \quad (5.2)$$

Suvdan foydalanish koeffitsiyenti reja bo'yicha birga teng bo'lishi kerak. Shunga ko'ra amalda

suvdan foydalanish koeffitsiyenti (SFK) quyidagi ifoda bo'yicha hisoblanadi:

$$SFK = W_a Q P \quad (5.3)$$

WpQa

bunda W_a, W_r - reja bo'yicha belgilangan va amalda sug'orilgan maydon, ga:

Q_a, Q_r - o'n kunliklar davomida reja bo'yicha va haqiqatda sarflangan suv miqdori, m.kub/s

SFK ning qiymati 0,9-1,10 atrofida bo'lishi kerak, u pasayib ketganda buning sababi aniqlanadi va tegishli tuzatish kiritiladi.

Paxta yetishtirish majmuasidagi ekinlar sug'orish rejimi rejalashtirilgan hosildorlikka bog'lab

olib boriladi. Paxtachilikning yangi, shuningdek eski mavzellarida suvdan foydalanish loyihaviy, rejaviy va joriy bo'lishi mumkin. U boshqa ekinlarni o'stirishda ham shunday bo'ladi. Yuqorida keltirilgan suvdan foydalanish turlari quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- sug'orish me'yori loyihasi sug'orish tizimini loyihalash davrida manbadagi imkoni bo'lgan suv zaxirasini va bir necha yillar davomida tuproq namligi haqidagi ma'lumotlarni hisobga olgan holda tuziladi;

- rejaviy sug'orish me'yori suv manbaidagi mavjud bo'lgan suv zaxirasiga bog'liq holda suv berishdagi o'zgarishlar ko'zda tutiladi. Sizib yo'qotiladigan suv sarfini qisqartirish va ularni sug'orish tizimlari bo'yicha taqsimlashda mexanizasiyadan foydalanish hamda suvni sug'orish egatlariga bo'lib-bo'lib berish hisobiga suvdan foydalanish koeffitsiyenti yuqori darajada bo'ladi va ekinlarni joriy sug'orish rejimi xo'jalikda rejalashtirilgan suv berishni tashkil etishga imkon beradi;

- suvdan foydalanish rejasini to'g'ri tuzish uchun sug'orish shaxobchalari, uning uzunligi, gidrotexnik inshootlarining qanchalik texnik jihatdan ta'minlanganligi va ularning foydali ish koeffitsiyenti haqida tegishli ma'lumotlarga ega bo'lish lozim. Buning uchun ekinlar ekiladigan maydonning plani va ular uchun tasdiqlangan sug'orish rejimini bilish kerak bo'ladi.

Qabul qilingan sug'orish rejimiga asosan o'n kunliklar davomida suvdan foydalanish jadvali tuziladi. Bunga misol tariqasida Toshkent viloyatidagi Usmon Yusupov shirkat xo'j aligini olish mumkin. Tajriba tariqasida 880 gektar maydonga almashlab ekish sxemasi bo'yicha g'o'za va 320 gektar maydonga esa beda ekilgan. Tasdiqlangan sug'orish rejimiga muvofiq g'o'zaga vegetasiya davri mobaynida 7 marta suv berish mo'ljallanib, bunda 1-5-1 sxemasi bo'yicha gektariga 1000-1200 va 900 m³, vegetasiyadan tashqari davrda (ekish oldidan) gektariga 1200-1400 m³, vegetasiya hamda vegetasiyadan tashqari davrda beriladigan umumiy suv miqdori esa gektariga 9-10 ming m³ bo'lishligi mo'ljallangan.

Suvdan foydalanish rejasini tuzishda gidromodul bo'yicha beriladigan suvni hisobga olgan holda suv berish belgilanadi va paychilar hamda butun xo'jalik bo'yicha almashlab ekishdagi ekinlar uchun umumiy buyurtma tuziladi.

Yil davomida talab etilayotgan umumiy suv sarfi (Q-brutto) va sof holati talab qilinayotgan suv miqdori (Q-netto) aniqlanib, ular asosida suvdan foydalanish koeffitsiyenti topiladi.

Xo'jaliklarda suvdan foydalanish samaradorligi

Ekinlarni sug'orishda suvdan maqsadga muvofiq foydalanish ko'p jihatdan sug'orish tizimlarini suv olishga qanday tayyorlanganligi va suvni egatlarga taqsimlab beradigan sug'orish texnikasining qanchalik yuqori muxandislik tipida bajarilganligi xo'jaliklarda suvdan foydalanish samaradorligini va shular asosida o'stirilayotgan ekinlar hosildorligini oshirishni ta'minlaydi.

Ekinlar hosildorligini oshirish va asosiy jamg'arma-larning hosil bilan qanchalik qoplanishidagi birdan-bir muhim omil - paxtakor xo'j aliklarda suvdan rej ali foydalanishni takomillashtirishdan iboratdir.

Sug'orishning qulay muddati aslida nisbiy tushuncha. Negaki, qishloq xo'jalik ekinlari, shu jumladan, paxta yetishtiriladigan katta maydonlardagi g'o'zalar qanday vosita yoki usul bilan va qachon sug'orilishi kerakligini oldindan belgilab bo'lmaydi. Ma'lum bir bosqichda sug'orish muddatini belgilash uchun yerning muayyan davrdagi tabiiy holatiga mos bo'lgan xususiyatlari, bir kunlik o'rtacha ob-havo, gidrogeologik sharoitlar tanlanadi. Ishlab chiqarish jarayonida aniq

xo'jalik va tabiiy sharoit nuqtai- nazaridan o'rta hisobdagi kunlik me'yordan u yoki bu tomonga arzimagan chekinishlar bo'lishi mumkin. Biroq ular hosildorlikka zarar yetkazadigan darajada bo'lmasligi lozim.

O'zbekiston sharoitida sovuq tushgunga qadar g'o'zadan eng yuqori hosil olish uchun uni ob- havoning kelishiga qarab 1-4-1 va 1-5-0 tartiblar bo'yicha 6000 m.kub/ga me'yorida sug'orish maqsadga muvofiqdir. Qish va bahor seryog'in yozga nisbatan salqin kechgan yillarda sug'orish 1-4-0 tartibi bo'yicha amalga oshirilsa, yuqori hosildorlikka erishiladi. Bunda o'simliklar 5000-5500 m.kub/ga me'yorda sug'orilgani ma'qul.

Paxta yetishtirish uchun iqtisodiy jihatdan nisbatan yuqori foyda keltiradigan suv sarfi 5500-6000 m.kub atrofida bo'lishi lozim. Bunda sizot suvlar yer sathidan 2-2,5 metrgacha pastda bo'lishi kerak. Shu bilan birga yer mineral va mahalliy o'g'itlarga yetarli darajada to'yintirilsa, agrotexnikaga to'la amal qilinsa, hosildorlikni 40 s.ga yetkazish mumkin.

Qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil olish uchun tuproq unumdorligini oshirish bilan bir vaqtda uchastkalar ichidagi kanallarning qanchalik sozligi to'g'risida muntazam qayg'urish kerak, bu esa o'z navbatida sug'orish shaxobchalariga o'z muddatida suv yetkazib berish va dalalar bo'ylab suvdan samarali foydalanish imkonini beradi.

Suvdan tejamkorlik bilan foydalanish texnologiyasini joriy etish xo'jaliklar bo'yicha isrof bo'ladigan suv sarfini kamaytiradi. Xususan:

- butun sug'orishda egatlar bo'ylab tuproqning bir tekisda namiqishiga erishiladi:
- suvning tuproqni pastki qatlamlariga sizib ketishi va oqova sifatida isrof bo'lishi qisqaradi:
 - sug'orish uchun mashinalar yordamida suv yetkazib berishda sarflanadigan yonilgi-energiya xarajatlari ham kamayadi:
 - xo'jalik shoxobchalari bo'yicha suv taqsimotini mexanizasiyalashtirish va avtomatlashtirish imkoniyati vujudga keladi:
 - suvni uzaytirilgan (500-600 m) sug'orish egatlari orqali berish imkoni vujudga kelib, bunda suvdan foydalanish koeffitsiyentini oshirishga erishiladi:
 - tuproqni o'z muddatida va yuqori sifatli qilib ishlash hisobiga namni tuproq yuzasidan bug'lanib isrof bo'lishi keskin kamayadi.

Ma'lum miqdordagi suvni tejashga har qaysi dalada sug'orishni mumkin qadar qisqa muddat ichida amalga oshirish va sug'orishlardan keyin qator oralariga ishlov berishni o'z muddatida o'tkazish bilan erishish mumkin.

Xo'jaliklarda suvdan samarali foydalanishni tahlil qilish bilan qabul qilingan sug'orish me'yorlarini hisobga olgan holda qishloq xo'jalik ekinlarini o'n kunliklar bo'yicha sug'orish grafigi tuziladi. Sug'orish bo'yicha reja topshiriqlari tuzish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Ekinlar bilan band qilingan jamiyki maydonlarni uzoq muddat davomida sug'orishga mo'ljallangan bir kecha kunduzli sug'orish maydoni mo'ljallanadi.

O'tkazilgan hisob-kitoblar suvga bo'lgan buyurtmani yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq tuzish imkonini beradi.

Suvdan foydalanishning iqtisodiy jihatdan samaradorligini oshirishga takomillashtirilgan sug'orish tizimlarini joriy etish yo'li bilan erishish mumkin.

Xo'jalik sug'orish tizimlari va dalalarda suvni tejashga xo'jalikka berilayotgan va dalalarga taqsimlanayotgan suvni hisobga oladigan moslamalardan keng foydalanish hamda qator agromeliorativ tadbirlarni joriy etish yo'li bilan erishish mumkin. Shunga ko'ra sug'orishning unchalik murakkab

bo'lmagan va iqtisodiy jihatdan foydali usul va texnikasini qo'llash sug'orish rejalarini belgilangan muddatlarda bajarish imkonini beradi. Xo'jaliklarda sug'orish suvlarini tejashning asosiy yo'nalishlari sug'orish tizimlarini tubdan qayta qurish va jihozlash, kollektor-zovur shoxobchalari qurish, sug'orish usullarini to'liq mexanizasiyalash, suvni hisobga olishni joriy etish va suvdan foydalanishni avtomatlashtirish bo'lib, bular barchasi suvni behuda isrof bo'lishi keskin kamaytirishga imkon beradi.

Sug'oriladigan dehqonchilik borasidagi eng yirik muammolardan biri sug'orish tizimlari

orqali nobud bo'ladigan suv miqdorini kamaytirish va sug'oriladigan maydonlarda suvdan foydalanish koeffitsiyentini oshirishdan iboratdir.

Statistika ma'lumotlari bo'yicha, Markaziy Osiyo davlatlarida suv iste'mol qilish hajmi har yili 370 mlrd m³ ni tashkil etadi, ana shunday qishloq xo'jalik ehtiyoji uchun yiliga 227 mld m³ yoki deyarli 60% qismi olinib, qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishga 200 mld.m.kub yoki 88 % suv olingan. O'zbekistonning qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun har yili 56-60 mlrd.km³ suv sarflanib, shunday 35-40 % qismi oqova suv sifatida tuproqqa sizib va havoga bug'lanish yo'llari bilan yo'qoladi.

Shunday qilib, meliorativ jihatdan xizmat ko'rsatish uchun asosiy vazifa tuproqning chuqur qatlamlariga sizib yo'qoladigan suv nobudgarchiligini kamaytirish va tuproqning meliorativ holatini yomonlashishiga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.

Suvning tuproqqa sizib yo'qolishiga qarshi kurashda turli xil choralar qo'llaniladi. Birinchi galdagi joriy kurash choralari quyidagilar kiradi:

- sug'orishni kechayu-kunduz o'tkazish va xo'jaliklarga suvni bir tomonga yo'naltirilgan oqimda berish;

- xo'jalik sug'orish shoxobchalariga ortiqcha suv olishga yo'l qo'ymaslik;
- har galgi va umumiy sug'orish me'yorlari hamda sho'r yuvishda beriladigan suv miqdorlariga qat'iy amal qilish;

- yilning vegetasiya va novegetasiya davridan tashqari vaqtlarda xo'jalik sug'orish shoxobchalari ishini ortiqcha yuklamada ishlashiga yo'l qo'ymaslik;

- xo'jalik sug'orish shoxobchalari va xo'jalikda suvdan foydalanuvchilar uchun suv taqsimlash to'g'onlarini qisqartirish, suvdan foydalanishni qat'iy hisobga olib borishni nazorat qilish;

- kanallarni o't bosishiga va ularni loyqa o'tirishiga yo'l qo'ymaslik, begona o'tlarga qarshi kimyoviy vositalar orqali kurashish va kanallarga loyqa o'tirib qolmasligi uchun suvni kerakli oqimda berishni ta'minlash;

- suv o'lchash va taqsimlash qurilmalari orqali suv oqib yo'qolishini qisqartirish;

- o'z oqimi bilan suv berish uchun hosil qilingan sug'orish shoxobchalarida katta dambalar qurishga yo'l qo'ymaslik;

Suv nobudgarchiligiga qarshi kurashda joriy qurilish choralari quyidagilar kiradi:

- xo'j aliklarda sug'orish kanallarining umumiy uzunligini qisqartirish va ularni ish holatida saqlash;

- xo'jalik shoxobchalarida suv taqsimlash to'g'onlarini kamaytirish;

- ayrim uchastkalarda kanallarning tubini yonbag'irlarini shibbalab zichlash;

- o'zanga loyqa bostirish, biologik to'shamalar to'shash;

- sug'orish shoxobchalarida asfaltli, betonli va polimer plyonkalar qurish;

- kanallarning tubida va yonbag'irlarida sun'iy ravishda sho'rtoblantirish;

- suv o'tkazuvchanligi yuqori tuproqlarda kanallarni beton-novli sug'orish shoxobchalariga va yopiq tipda qurilgan quvurlarga almashtirish.

Kanallarda behuda yo'qotilgan suv sarfini kamaytirish bo'yicha eng samarali tadbirlardan biri kanallarni asosiy ravishda qayta qurish ya'ni ularni beton bilan qoplash, beton-novli sug'orish shoxobchalari qurish va dalalarda sug'orish mashinalarini qo'llashdan iboratdir.

Sug'orish shoxobchalaridan sizib yo'qoladigan suv sarfini kamaytirish uchun ular o'simlik qoldiqlaridan xoli qilish kerak. Agar yuqorida keltirilgan tadbir yetarli bo'lmasa, u vaqtda kanallar tubi va yonbag'ri maxsus antifiltrli qoplamalar bilan qoplanadi. Bu sug'orish shoxobchalari orqali sizib yo'qoladigan suv miqdorini ancha kamaytiradi.

Tuproqqa sizib yo'qoladigan suv miqdorini kamaytirish uchun oddiy choralardan keng foydalaniladi. Suvning yerga singib ketishiga qarshi oddiy kurash choralaridan asosan ilgariidan sug'orilib kelingan hududlarda foydalaniladi. Kanallarning tubi va yonbag'irlarini bu xildagi og'ir va soz tuproq zarrachalari bilan berkitish suvning sizib yo'qolishini bir necha baravarga qisqartiradi. Kolmataj qilish

kanallarga kuchli darajada loyqalatilgan suv oqizish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda loyqa

zarrachalarini suv bilan kapilyar oraliqlariga kirib boradi va kapilyar oraliqlarini berkitib qo'yadi.

Suvni bir qismi sizot suvlarini to'ldirish uchun ham sarflanib, bunda tuproq qayta sho'rlanishi yoki botqoqlanishi va natijada tuproqning meliorativ holati yomonlanishi mumkin. Sug'orish suvlaridan foydalanish koeffitsiyentini oshirish va sug'orish tizimining foydali ish koeffitsiyentini ko'tarish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirmoq lozim:

- suvdan rejali foydalanish imkonini beradigan muxandislik tipida qurilgan gidrotexnik inshootlariga ega bo'lish;
- antifiltrasiyaviy tadbirlarni joriy etish yordamida kanallardan sizib yo'qoladigan suv sarfini qisqartirish va uni butunlay bartaraf etish;
- qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil olishni ta'minlaydigan mO'tadil sug'orish rejimini joriy etish;
- sug'orishda suv taqsimlashni mexanizasiyalash va avtomatlashtirish hisobiga suvdan foydalanish samaradorligini oshirish;
- sug'orishning texnik progressiyasiga muvofiq sug'orish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish va qayta qurish.

O'zbekistonda 95 foizdan ortiq qishloq xo'jalik mahsuloti sug'oriladigan yerlarda yeti shtiri ladi va sarflangan har bir so'm mablag' hisobiga 2,5 baravar sof daromad olinadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, sug'oriladigan haydalma yerlar sharoitida, sug'orish va mineral o'g'itlar hisobiga ko'riladigan foydani ilmiy jihatdan asoslangan sug'orish rejimlarini qo'llash va mineral o'g'itlarning o'simliklar mumkin qadar to'liq foydalana oladigan nisbatlarini joriy etish hisobiga oshirish mumkin.

Sug'orish egatlariga suvni yetkazib berish va uni egatlarga taqsimlash ishlarini mexanizasiyalashgan va avtomatlashtirilgan sug'orish texnikasidan foydalanish koeffitsiyentini 0,66 dan 0,81.gadar oshiradi. Buning dalili sifatida sug'orish shoxobchalarida avtomatlashtirilgan tizimlar, uni ishlab chiqarilganligi va ularni ishlab chiqarishga joriy etilganligini keltirish mumkin.

Sun'iy sug'orish sharoitida ko'p yillar davomida olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, yerdan to'g'ri foydalanganda sug'orish tizimlari uchun qilingan asosiy xarajatlar ko'pi bilan 5-6 yil ichida qoplanib ketadi. Buni tuproq unumdorligini yuqori bo'lishi va sug'orish suvlari yetarli miqdorda mavjudligi bilan izohlash mumkin bo'lib, bunda tuproqning meliorativ holatini yaxshi saqlaydi va mo'l hosil olish uchun muvofiq sharoit vujudga keladi.

Suvdan foydalanish koeffitsiyentini oshirish ko'p jihatdan xo'jalikda va dalalarda unga nisbatan moddiy jihatdan javobgarlikni his etishga, yetishtirilgan hosilga bog'liq bo'ladi. Suvdan foydalanishda moddiy jihatdan javobgarlikni belgilash uchun xo'jalikka kelayotgan suvni qat'iy ravishda hisobga olib borish va undan samarali foydalanishni joriy etish kerak bo'ladi.

Nazorat uchun savollar.

- 1.Qishloq xo'jaligida yerning asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida xususiyatlari qanday?
- 2.Respublika yer fondi, uning tarkibiy qismlari qanday?
- 3.Yerlarning iqtisodiy bahosi nima?
- 4.Tuproq unumdorligining turlari va uni oshirish yo'llari qanday?
- 5.Davlat yer kadastrining zaruriyati va tuzilishi?
- 6.Yerdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari qaysilar?
7. Yer rentasi va yer narxi.
8. Suvdan foydalanishda havza tamoyilining afzalliklari va ahamiyati.
- 9.Sug'orish tizimi va suvni tejoychi yangi sug'orish texnologiyalaridan foydalanish.
- 10.Sug'orish tizimlarida va xo'jaliklarda suvdan rejali foydalanish. Xo'jaliklarda suvdan foydalanish samaradorligi.